



YANGI SOLIQ MA'MURCHILIGI VA UNDA RO'Y BERADIGAN O'ZGARISHLAR

**Mahmudova Ravshana Abdumo'min qizi¹,
Azimova Feruza Payziyevna²**

¹Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat Institutining
Buhgalteriya Hisobi va Audit yo'nalishi 3-bosqich talabasi,

²Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat Instituti

Iqtisod fanlari nomzodi Dotsent

ravshanamahmudova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6529115>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada yangi o'rnatilgan soliq tizimi ma'murchiligini haqida va yangi tizim uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan xalqaro dasturlar haqida so'z yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR

soliq tizimi, Tax Free dasturi, eksport, soliq to'lovchilar, soliq yuki, tadbirkorlar, pul aylanmasi

Bugungi kunda ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar soliq ma'murchiligiga katta e'tibir qaratayotganligi sir emas. Sababi davlat budjeti daromadlarini shakllanishida soliqlarning roli katta bo'lib, ushbu soliqlarning davlat budjetiga kelib tushishida soliq ma'murchiligining o'рни beqiyos. Shunday ekan soliq ma'murchiligi o'zi nima va bu haqida olimlarning fikriga to'xtalib o'tsak.

- Soliq ma'murchiligi- soliq nazorati subyektlarining samarali faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish.¹
- Soliq ma'murchiligi -barcha soliqlarni eng kam harajat qilish orqali eng ko'p yig'iluvchanligini ta'minlagan holda, soliqlarni o'z

vaqtida va to'liq to'lashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.²

Ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish va qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni liberallashtirish muhim o'rin tutadi. Shu bois mamlakatimizda keyingi paytda bu borada adolatli, shaffof va uzoqqa mo'ljallangan tizimni yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirib kelinyapti. Buning natijasida butunlay yangi soliq ma'murchiligi yuzaga keldi. Tadbirkorlar buning amaliy ta'siri va natijasini avvalgiday chiroyli so'zlarda emas, balki o'zlarining kundalik faoliyatida his etyapti.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 1-iyundan tadbirkorlar uchun soliq ma'murchiligi va tekshirishlar tizimi

¹ Чухнина.Г.Я «Реформирование системы налогового контроля в РФ»

² Ногина О.А «Налоговый контроль: вопросы теории»



soddalashtirilishini e'lon qildi. Bu haqda u 15-apreldagi videoselektor yig'ilishida aytib o'tdi.

Mol-mulk solig'ini hisoblash tizimi bozor tamoyillariga o'tkazilganini inobatga olib, qo'shimcha yuqori soliq stavkalarini qo'llash tartibi bekor qilinadi.

Shuningdek, aylanmasi 1 milliard so'mdan oshgan tadbirkorlarga qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi guvohnomasi dastlabki o'rganishsiz, avtomatik tarzda beriladi.

Joriy yilda tadbirkorlarning faoliyatida o'tkazilgan tekshiruvlar soni 1,7 barobarga oshib, 86 mingtani tashkil etdi. Bu tadbirkorlar tomonidan ko'plab e'tirozlarga sabab bo'lmoqda.³

Shu sababli, tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvlarni oldini olish uchun endi 22 ta turdagi tekshiruv faqat Biznes-ombudsman ruxsati bilan amalga oshiriladi. Hozirgi kunda 159 turdagi tekshiruvdan 119 tasiga ruxsat olinadi.

Bundan tashqari, yuqori xavf darajasi mavjud bo'lgan tadbirkorlarga qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi guvohnomasini to'xtatib qo'yishdan oldin xabardor etish tartibi joriy etiladi.

«Oxirgi soliq ma'murchiligi bo'yicha o'zgarishlar tadbirkorlar o'rtasida ko'plab tushunmovchilik va savollarni keltirib chiqardi. Shuning uchun, topshirig'imga ko'ra, Moliya vazirligi va Soliq qo'mitasi huzurida yirik tadbirkorlar, olimlar va faol jamoatchilar ishtirokida Jamoatchilik kengashi tuzildi», — dedi prezident.

Moliya vazirligi va DSQga har hafta tadbirkorlar bilan uchrashish va ijtimoiy tarmoqlar orqali tushgan savollar va tizimli masalalarni muhokama qilish, ularning yechimi bo'yicha takliflar kiritib borish topshirildi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.04.2022-yildagi videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi.

Bugungi kunda 200 dan ortiq sanitariya talablari mavjud bo'lib, ularning 20 tasiga amal qilishning umuman imkoni yo'q.

Shu munosabat bilan:

- ovqatlanish korxonalari uchun sanitariya talablarini qayta ko'rib chiqib, eskirgan talablarni bekor qilish;
- yetkazib berish xizmatlari bilan shug'ullanadigan korxonalarga sanitariya talablarini soddalashtirish vazifasi qo'yildi.

Ruxsatnoma berish talablarini soddalashtirish ham tizimli ravishda davom ettirilishi ta'kidlandi.⁴

Soliq ma'murchiligini takomillashtirish uchun qilingan buncha ishlardan so'ngra O'zbekistonda ham Tax Free tizimini joriy etishni rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tax Free – bu chet el fuqarolari tomonidan shaxsiy foydalanishga sotib olgan tovarlarni eksport qilishda qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish bo'yicha xalqaro dasturidir.

Bu tizimni qo'llashni ahamiyati:

Birinchidan, QQS amaliyotini qo'llovchi barcha davlatlar eksportni rag'batlantirish maqsadida, chet elga eksport qilingan barcha tovarlarga nisbatan QQS qo'llashmaydi.

Ikkinchidan, mamlakat ichida qisqa vaqt ichida bo'lgan chet el fuqarolari to'langan soliqlardan ijtimoiy samarani, ya'ni ta'lim, tibbiyot kabi sohalaridagi imtiyozlardan foydalanishga ulgurmaydilar va shuning uchun ham ulardan qo'shilgan qiymat solig'ini undirish adolatdan emas.

Tax Free tizimi foydalanuvchilarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Chet el fuqarosi bo'lishi;

⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/>



- Har bir davlatda belgilangan eng kam harid miqdorini amalga oshirishi;
- Maxsus do'konlardan harid qilishi va to'langanlik haqidagi chekda QQS stavkasi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Bu tizimni qo'llashdan quyidagicha samara ko'rishimiz mumkin:

- Turizm sanoatini rivojlantirish;
- Chakana savdoni rivojlantirish;
- Yangi ish o'rinlarini ochish;
- Savdo aylanmasini oshirish orqali budgetga soliq to'lovlarini oshirish.⁵

⁵ Scientific Journal Impact Faktor jurnali 2021-yil iyun soni



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чухнина.Г.Я «Реформирование системы налогового контролб в РФ»
- 2.Ногина О.А «Налоговый контроль: вопросы теории»
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.04.2022-yildagi videoselektior yig'ilishidagi ma'ruzasi.
- 4.<https://www.gazeta.uz>
- 5.Scientific Journal Impact Faktor jurnali 2021-yil iyun soni
6. <https://uzbektourism.uz>